

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

### **Oiladagi ahloqiy tarbiyaga ijtimoiy muhitning ta'siri**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universiteti Tarix fakulteti*

*2-bosqich talabasi*

***Shokirova Sevara Hayitmurod qizi***

**Annotatsiya:** Oiladagi axloqiy tarbiyaning bolalar hayotidagi muhim ahamiyati.Tarbiyalashning samarali usullaridan foydalanib bolalarni yoshligidanoq axloqiy tarbiya masalalariga jiddiy e'tibor qaratish hozirgi kun uchun muhim talab hisoblanadi.

*Oiladagi ,bog'cha va mакtabdagи tarbiyalar uyg'unligi,ota-onalarning farzandlari kelajagi uchun eng katta qo'shgan hissasi ularni axloqli qilib tarbiyalash,Chunki axloqli farzand tarbiya va bilimni ham albatta oladi,albatta bunga ijtimoiy muhitning ta'siri ham katta.Shuning uchun bola tevarak atrofni o'r ganayotgan vaqt dan boshlab ,uni o'sayotgan muhitiga e'tibor qaratish lozim.*

**Kalit so'z:** Axloqiy tarbiya,jamiyat,oila ,ma'naviy fazilatlar,tarbiya vositalari,tarbiya usullari

Oiladagi axloqiy tarbiyaga ijtimoiy muhit qanday ta'sir etadi? Albatta tarbiyalanish jarayonida bola ko'plab hodisalar jarayonlarga duch keladi.Tevarak atrofni o'r ganadi va yon atrofdagi insonlarni kuzatib ularning ayrim jihatlarini o'rgana boshlaydi ,bu ham u o'zlashtirayotgan hodisalarga albatta ta'sir etadi.

Oila muhiti bola dunyoqarashini shakllantirish hamda axloq me'yorlarini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etishi hech kimga sir emas.Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatimizda oilada axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratildi.Bu masala davlat siyosatiga ko'tarildi,qator qonun va qarorlar qabul qilindi.

Gap axloq tarbiyasi haqida ketar ekan ,bir narsani anglab olish lozim.Axloq odamning jamiyatga ,mehnatga ,kishilarga xususiy va ijtimoiy mulkga ,oila va jamiyatga nisbatan tarixan vujudga kelgan xalq normalari va qoidalari

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

majmuasidan iborat.Aytish mumkinki axloqli yurish turish odatlari shunday bir zaminki ,busiz ,ma’naviy fazilatlar va munosabatlarni shakllantirib bo’lmaydi.

Alloma A.Avloniy axloq tarbiyasi haqida shunday yozadi.”Insonlarga eng muhim ziyoda sharaf baland daraja beruvchi axloq tarbiyasidir”<sup>1</sup>.

Odatda axloq tarbiyasi deganda jamiyat va insonlar uchun ibrat bo’ladigan jami ijobiy xatti-harakatlar yig’indisi tushuniladi. Axloqiy tarbiya –bolalar tarbiyasining eng muhimi hisoblanadi.Bola shaxsiyati hayotining birinchi yillaridan boshlaboq shakllanib boradi.Bola har kuni ko’rib eshitib yurgan narsalariga qarab o’z atrofidagilarga qanday qarashi mana shularning hammasi bolaning ma’naviy qiyofasi shakllanib borishiga katta ta’sir ko’rsatadi.Shuning uchun ham bolalarga go’daklik vaqtidan boshlaboq axloq tarbiyasini berib boorish lozim.

Bolalarni axloq odobli qilib tarbiyalash uzoq muddatli ,mashaqqatli jarayon bo’lib bu jarayonda bolaning xulq atvori ,odob axloqi shakllanib borishi hech kimga sir emas.

“Darhaqiqat bolaning odobli axloqli va mehnatsevar bo’lib o’sishlari uchun har bir oiladagi sharoit,oila boshliqlarining namuna bo’lishi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.Ularning yaxshi odatlari ,muomala madaniyati,so’z bilan ish birligi farzandlar uchun ibratdir.<sup>2</sup>

Shuni aytish kerakki ,bolalik davrida hosil qilingan adolatlar asta –sekin bola qalbida mustahkamlanib ,singib qoladi.Shuning uchun ham kundalik turmushda bola odamlarning bir-biriga hurmat-e’tibor bilan qarashini ,o’zaro yordam berib turishini ,muloyimligi,sofdilligi ,mehnatsevarligi kabi madaniy axloq namunalarini ko’rib turadigan bo’lishi kerak.Fikrimizcha bolalarga axloq tarbiyasi berishining asosiy usullari quyidagilardan iboratdir.

1.Bolalarning xatti harakatlari va yurish-turishiga ma’lum maqsadni ko’zlab boshchilik qilib boorish

2.Kattalarning yurish turishini o’rnak qilib ko’rsatish:

Axloqiy tarbiya bolaning kelgusida ota onalarga atrofdagi kishilarga

<sup>1</sup> Vatan va millat muqaddasdir.(to’plam)T.O’qituvchi ,1996’44-bet.

<sup>2</sup>A.Q.Munavarov,M.Ma’murov “yaproq ildizdan quvvat oladi”.T.O’zbekiston,1990,32-bet

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

9-to’plam 1-son iyul 2024

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

,jamoalarga ,jamiyatga, ona vatanga ,mehnatga o'z burchiga munosabatini belgilaydi vva asta sekin shakllanib boradi.Axloqiy tarbiya berishning vositalarini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

- 1.Bola atrofidagi muhit
- 2.oila va ta'lim muassalarida butun hayotining qanday tashkil etilgani
- 3.Atrofdagi katta yoshdagi kishilarning o'z yurish –turishi bilan ibrat ko'rsatishi,ularning ma'naviy qiyofasi:

Yuqoridagiladardan ko'rilib turibdiki ,bolalarda axloqiy fazilatlarini shakllantirishda jamiyat va undagi munosabatlar asosiy rol o'yndaydi.

Bu xususida E..Yusupov “Odam ota-onadan tug'iladi,ammo uning axloq odob borasidagi jamiyatda ,ijtimoiy, siyosiy iqtisodiy munosabatlar ta'sirida shakllanadi “deb e'tirof etadi.

Shu o'rinda bolalarga axloqiy tarbiya berishdagi ba'zi bir muhim jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Axloqiy tarbiyani muntazamlik va izchillik asosida olib boorish .Bolalarga axloqiy fazilatlar hammasini birdaniga singdirishning iloji yo'q.Bu fazilatlarning bolalarda tarkib toppish jarayoni ko'p yillargacha cho'ziladi va shu boisdan ham bu ishda muntazamlilik bo'lishi kerak.Tarbiyalash jarayoni juda murakkab jarayon bo'lib ,u asta sekin uzlusiz ravishda yangi malaka va ko'nikmalarni o'stirish hamda mustahkamlab boorish yo'li bilan amalga oshiriladi.Bu tarbiya jarayonini izchilligini belgilaydi.

Shu o'rinda qayd etish joizki ,xulq-atvor elementlarining ko'plab ko'rsatilishi va tez-tez alishtirib turilishi ,bolaning murakkab taasurotlaridan zo'riqishi hamda bolaga uning qo'lidan kelmaydigan topshiriqlarini berish axloqiy tarbiyada yaxshi samara bermaydi. Zero,har ishda bo'lganidek ,bunda ham me'yor buzilmasligi kerak.

Ma'lumki,o'zbek xalqi juda boy ma'naviy –axloqiy tarbiya qadriyatlariiga ega.Axloqiy urf-odatlar,rasm-rusmlar tarbiya usullari ota-onalar uchun ham ibrat maktabidir.Har bir ota-onan mazkur tarbiya usullari jarayonida ustalik bilan qo'llashi orqali yaxshi odatlarni farzandlar qalbiga singdirishi lozim bo'ladi.Bu

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

yerda ota-onalar katta yoshdagi kishilar shaxsiy namunasi va ijtimoiy muhit katta ahamiyatga ega bo'lib ,bu bolalar tarbiyasining o'zagini tashkil qiladi.Aytish mumkinki ,bolalar axloq tarbiyasini oldinroq o'zi yashayotgan atrof muhit va ko'chadagi bolalardan oladi.Bolalar suvga o'xshaydilar,suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar o'sha muhitning ham shunday odat va axloqini qabul qiladilar."Axloqiy tarbiyaning rng buyuk sharti shundan iboratki bolalar ko'proq yaxshi va yomon axloqni o'z uylaridan ,ko'chadagi o'rtoqlaridan ,maktabdagi o'quvchidan qabul qiladilar".

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki ,axloq tarbiyasi murakkab jarayon bo'lib ,bu ishda mahalla ,oila mакtab va jamoa tashkilotlarining bирgalikdagi faoliyati bir birini to'ldirib borsagina bolalarga axloq tarbiyasi berishda ijobiy yutuqlarga erishish mumkin.

Bolalarni axloqiy tarbiyalashning yana bir muhim jihatni ularni tarbiyalashda ijobiy fazilatlarga tayanib ish olib boorish zarur.Bolalardagi salbiy sifatlarga qarshi kurashishda ulardagagi ijobiy fazilatlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom avlodni voyaga yetkazish milliy mafkuramizning asosiy tamoyillaridan biridir.Shu sasabli ham bolalarga axloqiy tarbiya berish har birimizning kundalik ishimizga aylanishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Vatan va millat muqaddasdir (to'plam) O'qituvchi .1996.44 bet
- 2.Q.Munavvarov ,M Mamurov "Yaproq ildizdan quvvat oladi" T.O'zbekiston .1990.32-bet
- 3.A Fitrat ."Rahbari najot asaridan o'zbek pedagogikasi antalogiyasi .2jild .T.o'qituvchi 1999.56-bet
- 4.Renessans-edu.uz